

Fan bo'yicha metodik qo'llanma

**Ona tili
3-sinf**

umumi o'rtta ta'lim maktablari o'qituvchilari uchun

KIRISH

Ona tili fani o'quvchilarda o'z fikrini ona tilida og'azi va yozma tarzda erkin va ravon savodli ifodalash, o'zgalar fikrni nutq vaziyatiga mos tarzda tushunish ko'nikmalarini shakllantiradigan fanlaridan biridir.

Bu fan o'quvchilarga til qonuniyatlarini idrok qilish, amalda qo'llash va savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

"Ona tili" fanining **asosiy maqsadlari** quyidagilardan iborat:

- tinglab va o'qib tushunish ko'nikmalarini shakllantirish;
- yozma nutqini shakllantirish va rivojlantirish;
- og'zaki nutqini rivojlantirish;
- grammatik qonuniyatatlarni o'zlashtirish;
- ijobjiy hissiy-emotsional qadriyatlarni shakllantirish.

Asosiy vazifalari:

- o'zgalarning og'zaki nutqini tushunish
- yozma matnlarni o'qiy olish
- gaplar va kontekslarni tushunish
- fikrini yozma tarzda savodli ifodaly olish
- fikrini og'zaki tarzda savodli ifodaly olish
- tilning fonetik qonuniyatlarini idrok qilish
- tilning leksik qonuniyatlarini idrok qilish
- tilning morfologik qonuniyatlarini idrok qilish
- tilning sintaktik qonuniyatlarini idrok qilish
- tilning uslubiy qonuniyatlarini idrok qilish
- tilning punktuatsion qonuniyatlarini idrok qilish
- o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish;
- moddiy madaniyatda aks etgan insoniyatning axloqiy-estetik va ijtimoiy-tarixiy tajribasini o'zlashtirishga ko'maklashish;
- boshqa insonning shaxsiyatini hurmat qilish asosida teng huquqli hamkorlik qobiliyatini rivojlantirish;
- boshqalarning fikri va nuqtayi nazariga nisbatan bag'rikenglikni tarbiyalash;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida uyg'un tushunchaviy-mantiqiy va obrazli-badiiy tafakkurni o'stirish;
- fikr ifodalash jarayonida so'zlardan o'rinali foydalanish ijodiy salohiyatini rivojlantirish;

O'qitish metodikasi

"Ona tili" fanini o'qitish metodikasi zamonaviy ta'limga texnologiyalarini faol qo'llashni ko'zda tutadi, jumladan:

- 1) Muammoli ta'limga (har bir dars boshida muammoli savol berish);
- 2) Muammoni muhokama qilishda o'quvchilarning hayotiy tajribasidan foydalanish;

- 3) Mashqlarni bajarishda guruh va yakka tartibda ishlash;
- 4) Blum taksonomiysi asosida bilim, ko'nikma va malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirish;
- 5) Fikrlashning asosiy turlariga tayanish (ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-amaliy, mavhum, assotsiativ);
- 6) Loyihaviy ta'lif (har bir bob yoki chorak oxirida kichik loyihalarni amalga oshirish);
- 7) Refleksiya.

“Ona tili” darslarida “4K” kompetensiyalarini rivojlantirish

Tanqidiy fikrlash

- *tahlil qilish* – fikrlar, savollar va dalillar o'tasidagi mantiqiy bog'liqliklarni aniqlay olish qobiliyati;
- *baholay olish* – voqeylek yoki hodisani baholay olish qobiliyati;
- *tushuntirish* – voqeylek yuzasidan o'z nuqtayi nazarini asoslay olish qobiliyati;
- *o'z-o'zini boshqarish* – o'z-o'zini tahlil qila olish qobiliyati.

Ijodkorlik

- *qiziquvchanlik* – o'rganilayotgan fan yoki mavzuga qiziqish, u haqida ko'proq bilishga intilish, mustaqil ravishda ma'lumot izlash va o'z savollariga javob topishga harakat qilish;
- *tasavvur qilish* – namuna yoki o'rganilgan texnika va usul asosida o'z mahsulotlarini yaratish qobiliyati;
- *g'oyalarni rivojlantirish* – yaratilgan (loyihalashtirilgan) predmet va obyektlarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, o'zgargan sharoitlarda o'z faoliyatini tezda moslashtirish, yangi ma'lumotlar paydo bo'lganda va olingan ko'nikma hamda malakalar rivojlanganda tezkor harakat qilish qobiliyati.

Muloqot

- topshiriqlarni bajarish jarayonida boshqalar bilan samarali muloqot qila olish;
- muloqotda tinglovchini o'z nuqtayi nazariга ishontira olish ishontira bilish;
- muhokamaga qaratilgan suhbat va munozaralarni boshlash qobiliyati;
- muloqot maqsadlariga erishish uchun verbal (og'zaki) va noverbal (og'zaki bo'lmagan) vositalardan foydalana olish.

Hamkorlik

- umumiy maqsadlarni o'z maqsadlari sifatida qabul qila olish (guruhlarda ishlash jarayonida);
- jamoaviy topshiriqlarni bajarish va taqdim etish vaqtida ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish, jamoaviy yoki sheriklikda ishlash.

Dars tuzilmasi

Dars qismi	Amalga oshiriladigan ishlar	Ajratilgan vaqt
I. Tashkiliy qism.	<ul style="list-style-type: none"> – salomlashish; – davomat; – ma’naviyat daqiqasi. 	2-3 daqiqa
II. O’tilgan mavzularni mustahkamlash.	<ul style="list-style-type: none"> – uyga vazifani tekshirish; – o’tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar bajartirish; 	5-7 daqiqa
III. Yangi mavzu bayoni.	<ul style="list-style-type: none"> – o’quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha kirish topshiriqlarini bajartirish; – o’quvchilarni yangi mavzuni tushunishlariga tayyorlash; – o’quvchilarga yangi mavzuni tushuntirish; 	13-15 daqiqa
IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.	<ul style="list-style-type: none"> – o’quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha mashqlar bajartirish; – darslik bilan ishslash; – darsda yangi o’rganganlarini mustahkamlash. 	13-15 daqiqa
V. Darsga yakun yasash va baholash	<ul style="list-style-type: none"> – o’quvchilarni dars davomida o’rganganlarini so’rash; – darsda faol qatnashgan o’quvchilarni rag’batlantirish. 	5-7 daqiqa
VI. Uyga vazifa berish.	<ul style="list-style-type: none"> – o’quvchilarga uyga vazifa berish va shartini tushuntirib berish; 	2-3 daqiqa

3-SINF ONA TILI 1-CHORAK TAVIM-REJA

T/n	Mavzu nomi	Uyga vazifa
1	Nutq haqida (1-, 2-mashqlar)	3-mashq
2	Nutq haqida (4-, 5-mashqlar)	6-mashq
3	Matn haqida (7-, 8-mashqlar)	9-mashq
4	Matn haqida (10 – 12- mashqlar)	13-mashq
5	Tovushlar va harflar (14-, 15-mashqlar)	16-mashq
6	Tovushlar va harflar (17-, 18-mashqlar)	19-mashq
7	Unli tovushlar va harflar (20-, 21-mashqlar)	22-mashq
8	Unli tovushlar va harflar (23-, 24-mashqlar)	26-mashq
9	Undosh tovushlar va harflar (27 – 29-mashqlar)	30-mashq
10	Undosh tovushlar va harflar (31 – 33-mashqlar)	34-mashq
11	Ijodkorlik soati – loyiha ishi	
12	Nazorat ishi	
13	Nazorat ishi tahlili	
14	Jarangli va jarangsiz undoshlar (35-, 36-mashqlar)	37-mashq
15	Jarangli va jarangsiz undoshlar (38-, 39-mashqlar)	40-mashq
16	Talaffuzida tushib qoladigan va yonma-yon kelgan undoshlar (41 – 43-mashqlar)	44-mashq
17	Talaffuzida tushib qoladigan va yonma-yon kelgan undoshlar (45 – 47-mashqlar)	48-mashq
18	Gap va uning turlari (49 – 51-mashqlar)	52-mashq
19	Darak gap (53 – 56-mashqlar)	57-mashq
20	Ijodkorlik soati – loyiha ishi	
21	Nazorat ishi	
22	Nazorat ishi tahlili	
23	Buyruq gap (58 – 60-mashqlar)	61-mashq
24	Buyruq gap (62-, 63-mashqlar)	64-mashq
25	So'roq gap (65 – 67-mashqlar)	68-mashq
26	So'roq gap (69 – 71-mashqlar)	72-mashq
27	So'roq gaplarni mustahkamlash (73 – 75-mashqlar)	76-mashq
28	So'roq gaplarni mustahkamlash (77-, 78-mashqlar)	79-mashq
29	His-hayajon gaplar (80 – 83-mashqlar)	84-mashq
30	His-hayajon gaplar (85 – 88-mashqlar)	89-mashq
31	Gap bo'laklari (90 – 94-mashqlar)	95-mashq
32	Gapning bosh bo'laklari (96 – 98-mashqlar)	99-mashq
33	Gap bo'laklari (100 – 102-mashqlar)	103-mashq
34	Ijodkorlik soati – loyiha ishi	
35	Nazorat ishi	
36	Nazorat ishi tahlili	

3-sinf Ona tili darsligi asosida o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma

1-dars

Mavzu: Nutq haqida (1 – 3-mashqlar)

Darsning ta'limiylar maqsadi: nutqiy matn qismlarini o'zaro bog'lash, rasmga qarab hikoya tuza olish; o'qilgan matn mazmunini va o'zgalar fikrini anglab, ifodalay olish, o'z fikrini mustaqil bayon qilgan holda ifodali va izchil nutq yaratish, nutq, gap, so'z haqidagi nazariy bilimlarni mustahkamlash.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda davlat ramzlariga hurmat, vatanparvarlik hissini shakllantirish, tarixiy obidalar, mamlakatimiz boyliklari, ularni asrash bo'yicha ko'nikma va malakalar hosil qilish; o'z fikrini boshqa manbalarga tayangan holda asoslay olish ko'nikmasini shakllantirish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish; davlat ramzlariga nisbatan hurmat va iftixon hissini shakllantirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Darsning turi: o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat, mustaqil ish metodi hamda "Bo'g'inlardan so'zlar tuz!" va "Gaplar tuz!" ta'limiylar o'yinlari.

Darsning jahozi: mavzuga oid rasmlar, so'zlar yozilgan kartochkalar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

II. O'tilgan mavzularni mustahkamlash.

O'quvchilarga 2-sinfda o'tilgan mavzular yuzasidan savol va topshiriqlar beriladi. Ulardagi bilim, ko'nikma va malakalar aniqlanadi.

"Gaplar tuz!" ta'limiylar o'yin o'tkaziladi. Buning uchun o'qituvchi nuqta, so'roq va undov belgisi yozilgan tarqatmalarni teskari holatda qo'yadi.

O'quvchi esa qaysi tinish belgisini olsa, shu belgiga mos gap tuzishi kerak bo'ladi. Buni bir necha marotaba takrorlab o'quvchilarning og'zaki nutqlarini aniqlash va baholash mumkin.

III. Yangi mavzu bayoni.

1-mashq. Rasm asosida hikoya tuzing. O'quvchilarga rasmlar ko'rsatiladi. Rasm asosida uch-to'rt gapdan iborat bo'lgan hikoya tuzish va hikoyaga sarlavha qo'yish topshirig'i beriladi.

Savol va topshiriqlarni bajaring.

1. Nutq nima?

O'quvchilar javoblari tinglanadi.

Nutq – gaplar orqali bildirilgan fikrdir.

2. Nutq nimalardan tashkil topgan?

O'quvchilar javoblari tinglanadi.

Nutq gaplardan, gaplar esa so'zlardan tashkil topadi.

3. Til va nutq o'rtaida qanday farq bor?

O'quvchilar javoblari tinglanadi.

Til jamiyat a'zolari uchun umumiyl, nutq esa har bir so'zlovchining shaxsiy xususiyati.

4. Og'zaki va yozma nutq haqida nimalarni bilasiz?

O'quvchilar javoblari tinglanib, *og'zaki nutq bizning so'zlashuvlarimiz, yozma nutq esa o'qishimiz yoki yozishimiz mumkin bo'lgan gaplardan iborat ekanligi* aytib o'tiladi.

5. Hikoyangizga sarlavha toping.

Hikoyaga "Vatan", "Ko'p millatli O'zbekiston", "Vatan ravnaqiga bizning hissamiz" kabi sarlavhalar qo'yish mumkin.

6. Siz shu mavzuda qanday rasm chizgan bo'lardingiz?

O'quvchilarning og'zaki javoblari tinglanib, tasavvurlaridagi so'zlarga qo'shimchalar aytildi.

Qoidani yod olish topshirig'i beriladi.

Nutq gaplar orqali bildirilgan fikrdir. Nutq gaplardan, gap esa so'zlardan tashkil topadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Hushixat daqiqasi:

Ona yurting – oltin beshiging.

2-mashq.

Darslikda berilgan 2-mashq yuzasidan topshiriqlarga o'quvchilarning diqqati qaratiladi.

Kerakli bo'g'inni topib, so'zlar hosil qiling.

1. O'zbek, O'zbekiston, o'zlik.

2. Oshxona, oshpaz, oshna.

3. O'rmon, o'dak, o'rgimchak.

4. Maysa, maymun, mayna.

O'quvchilarga bu topshiriq yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun quyidagi jadvalni to'ldirish topshirig'i beriladi. "**Bo'g'inlardan so'zlar tuz!**"

Va	...	dir
Tom	...	dam
Da	...	gan
Par	...	bib
Mak	...	rik
Daf	...	vuz

V. Darsga yakun yasash va baholash

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

3-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.